



THE IMPACT OF “ISLAMOPHOBIA” ON THE MIDDLE EAST AND THE MUSLIM WORLD

Dildora Dilshatovna Yusupova

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

Associate Professor

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Email: yu.dildorahon@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islam, Muslim, Islamophobia, extremism, terrorism, political Islam, radicalization, stereotype.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: This article examines the phenomenon of Islamophobia observed in the modern era on a global scale from philosophical and social perspectives. It highlights the factors leading to the formation of negative stereotypes towards Muslims and the intensification of Islamophobic sentiments as a result of the misinterpretation of Islam by certain radical groups for political and ideological purposes. The author analyzes the historical roots, contemporary manifestations, and consequences of Islamophobia based on scholarly literature, survey results, and the views of leading researchers.

“ISLOMOFOBIYA”NING YAQIN SHARQ VA MUSULMON OLAMIGA TA’SIRI

Dildora Dilshatovna Yusupova

Falsafa fanlari doktori (DSc)

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti dotsenti

Email: yu.dildorahon@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: islom, musulmon, islomofobiya, ekstremizm, terrorizm, siyosiy islom, radikallashuv, streotip.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy davrda global miqyosda kuzatilayotgan islomofobiya hodisasi falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Islom dinining ayrim radikal guruhlar tomonidan siyosiy va mafkuraviy maqsadlarda

noto'g'ri talqin qilinishi natijasida musulmonlarga nisbatan salbiy stereotiplarning shakllanishi va islomofobik kayfiyatlarning kuchayishiga olib kelayotgan omillar yoritib beriladi. Muallif islomofobiyaning tarixiy ildizlari, zamonaviy ko'rinishlari va oqibatlarini ilmiy adabiyotlar, so'rovnoma natijalari hamda yetakchi olimlarning qarashlari asosida tahlil qiladi.

ВЛИЯНИЕ “ИСЛАМОФОБИИ” НА БЛИЖНИЙ ВОСТОК И МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР

Дилдора Дилишатовна Юсупова
 Доктор философских наук (DSc)
 Доцент Национального университета
 Узбекистана имени Мирзо Улугбека
 Email: yu.dildorahon@gmail.com
 Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	ислам, мусульманин, исламофобия, экстремизм, терроризм, политический ислам, радикализация, стереотип.
Аннотация:	В данной статье анализируется феномен исламофобии, наблюдаемый в современную эпоху в глобальном масштабе, с философской и социальной точек зрения. Освещаются факторы, приводящие к формированию негативных стереотипов в отношении мусульман и усилению исламофобских настроений в результате неверного толкования ислама некоторыми радикальными группами в политических и идеологических целях. Автор анализирует исторические корни, современные проявления и последствия исламофобии на основе научной литературы, результатов опросов и взглядов ведущих ученых.

Kirish. So'nggi yillarda turli ekstremistik guruhlarining islom dinini o'z siyosiy va mafkuraviy maqsadlari yo'lida noto'g'ri talqin qilishi holatlari ortib bormoqda. Bu esa keng jamoatchilik orasida an'anaviy islomiy ta'limotlar bilan siyosiy islom o'rtasidagi chegarani farqlashda muayyan chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. Natijada, ayrim jamiyatlarda musulmonlarga nisbatan asossiz salbiy stereotiplar shakllanib, ularga nisbatan toqatsizlik kuchaymoqda. Shu kabi holatlar islom dini va musulmon shaxsiga nisbatan qo'rquv va ishonchsizlikni yuzaga keltirib, islomofobik kayfiyatlarning tarqalishiga zamin yaratmoqda. Islomofobik kayfiyatlar nafaqat ba'zi bir insonlarning islom dini to'g'risidagi fikrlarida, balki

turli tashkilotlarning harakatlarida ham namoyon bo'lmoqda. Shu bois, islomofobiya va ekstremizm o'rtasidagi o'ziga xos jihatlar, islomofobiyaning ko'rinishlari, u keltirib chiqaradigan oqibatlar, uni bostirish yo'llarini falsafiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni o'rganishda E.Dinet, B.Rougier, Ch.Allen, Y.Osipov, D.Sidirov, A.Krimin, G.Engelhardt, S.Ragozina, kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil, tizimlilik, diskurs kabi metodlardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv davrida butun dunyo hamjamiyatiga xavf solayotgan din niqobidagi ekstremistik va terroristik tashkilotlar uchun qo'l kelayotgan fobiyalardan biri bu – islomofobiya.

“Islomofobiya” atamasi, islom vakillari o'zlarining diniy qarashlariga nisbatan tajovuzkorlik harakati sifatida qarashlari mumkin bo'lgan har qanday harakatlar (og'zaki harakatlar) yoki fikrlar (islomni, musulmonlarni, urf-odat va ularni tanqid qilish) tushunilishi mumkin” [1, – C. 34.].

“Islomofobiya” atamasi ilk bor 1922-yilda sharqshunos olim Eten Dinening “G'arb nazariyasidagi Sharq” essesinde ishlatilgan atama” [2, – P. 347-348.]. Ushbu tushuncha keyingi yillarda biroz unutilgan bo'lsa-da, XX-asr oxirlariga kelib, Buyuk Britaniyaning “Runnymede Trust” tadqiqot markazi tomonidan 1997-yilda e'lon qilingan “Islomofobiya: barchaga undov” nomli hisobotidan so'ng yangidan qayta qo'llanila boshlangan. Unda islomofobiya jamiyatning barcha qatlamlarida tarqalgan, islomdan irratsional qo'rquv va unga nisbatan nafrat shaklida qarash izohlangan [3, – B. 217.].

Malayziya xalqaro islom universiteti professori Louyey Safi fikriga ko'ra, hozirgi kunda “islomofobiya”ning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Islomiy dunyoqarashni, urf-odatlarni buzib ko'rsatish;
- Islom dinining radikal diniy uyushmalar g'oyalari bilan aloqasi borligini “tasdiqlash” uchun turli “tadqiqotlar” olib borish;
- Islom dinini G'arb jamiyatlari uchun go'yo notinchlik manbai sifatida ko'rsatish;
- Musulmon olamiga nisbatan nohaqlik holatlarni oqlashga urinish [4].

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rinishlar sabab dunyoda diniy aqidaparastlik va xalqaro terrorizm keskin tus olib bormoqda. Ayniqsa, islom dinini aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm illati bilan bog'lashga urinishlar, ba'zi davlatlarning ayrim fuqarolari, shuningdek, matbuot xizmatlari tomonidan musulmonlarning yetakchisi, islom dinining asoschisi hisoblangan Muhammad payg'ambarning karikaturasini chizilishi, uning sha'niga qaratilgan tahqirlashlar, islom dinining

muqaddas manbasi bo'lmish Qur'oni karimning yoqib yuborilishi kabi holatlar millionlab musulmonlarning nafsoniyatiga tegib diniy nizolarning paydo bo'lishiga sharoit yaratmoqda.

Chunonchi, G'arbda islomofobiyaning kuchayishi bejiz emas. Chunki, G'arb mamlakatlarida kuzatilayotgan "Ommaviy madaniyat"ning keskin tus olishi, Yevropa aholisining tug'ilish dinamikasining pasayishi, G'arbda musulmonlar sonini ortib borishi va islom qadriyatlarining u yerda keng tarqalayotganligi tabiiy ravishda Yevropa aholisida vahima va qo'rquvlarning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa, bu haqida tarixchi olim Y.Osipov: "Oxirgi bir necha yillar mobaynida Fransiyada islom dinining rivojlanish xususiyatlari va uning Fransiya va Yevropadagi radikal harakatlari haqida tez-tez dadil gapira boshlandi. Uzoq vaqt davomida ko'pchilik fransuz tadqiqotchilari, ayniqsa universitet jamoatchiligi asosan "islomning radikallashuvi" haqida emas, balki islomning roli minimal bo'lgan "radikalizmning islomlashuvi" haqida yozadi" [5, – C. 65.] – deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, biz ham Osipovning keltirgan dalilini to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki, Fransiya universiteti jamoatchiligi "radikalizmning islomlashuvi" deya to'g'ri fikrni ilgari surgan. Xususan, islom dini radikallikni targ'ib qiluvchi din hisoblanmaydi. Aksincha, undan radikallar foydalanayotganligi radikalizmni islomlashayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, bugun jiddiy ilmiy tadqiqot markazlari ham islom radikallashuvi haqida emas, balki radikallashuvni islomlashayotganligini fransiyalik sotsiolog olimlar Bernar Rujening "Les territoires conquis de l'islamisme" (Islom tomonidan bosib olingan hududlar) [6] va Gyugo Misheronaning "Le jihadisme francais" (Fransuz jihodchiligi) [7] nomli tadqiqot ishlaridan ham bilish mumkin. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning Birmingem universiteti qoshidagi Amaliy ijtimoiy tadqiqotlar institutining tadqiqotchisi Kristofer Allenning 2010-yilda nashr etilgan "Islomofobiya" [8] deb nomlangan nazariy tadqiqot ishini keltirib o'tish joizdir.

Xususan, Kristofer Allen "Islamophobia" (Islomofobiya) deb nomlangan tadqiqotida islomofobiya fenomenini tushunishning bir necha yondashuvlarini aniqlaydi. Xususan:

"Birinchiidan, islomofobiya irqchilik sifatida;

Ikkinchiidan, islomofobiya mafkura sifatida;

Uchinchiidan, islomofobiya qonuniylik modeli sifatida" [9, – C. 275.].

Haqiqatdan ham yuqoridagi kabi tadqiqotlar Fransiya va Yevropada islomofobiya kuchayayotgan ayni paytdagi juda muhim tadqiqotlar hisoblanadi. Ayniqsa, islomofobiya kuchaygan davlatlarning o'z vakillari tomonidan unga qarshi dalillarning taqdim etilishi islomofobiyaning oldini olishdagi muhim omillardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mazkur masalaga oid muhim ilmiy manbalardan biri sifatida Aliksey Krimin va Georgiy Engeltgardtlar tomonidan yozilgan "Исламофобия" (Islomofobiya) [10] nomli maqolani ham

ko'rsatish mumkin. Ushbu maqolada 2003-yilda Rossiyaning "Ijtimoiy fikr" fondi tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma keltiriladi. Unga ko'ra aholiga: "Tasavvur qiling, iltimos! Sizning o'g'lingiz musulmon qiziga uylanmoqchi. Shaxsan siz bunga qarshi bo'larmidingiz yoki yo'q?" – degan savol bilan murojaat qilinadi. Shunda "Qarshi bo'lmas edim" – 50%, "Qarshi bo'lar edim" – 32%, "Javob berishga qiynalaman" – deganlar 18%ni tashkil qilgan. Shuningdek, "Tasavvur qiling, iltimos! Sizning qizingi musulmon yigitiga turmushga chiqmoqchi. Shaxsan siz bunga qarshi bo'larmidingiz yoki yo'q?" degan savolga esa, 44% kishi – "Qarshi bo'lmas edim", 39% – "Qarshi bo'lar edim" va 17% kishi – "Javob berishga qiynalaman" – deganlar javoblarni berishgan. Agar biz javob berishga qiynalganlar va qarshilarni foizini birlashtirsak, Rossiyada ham islomofobiya mavjud ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Shuningdek, 2008 va 2017-yillarda Rossiyada o'tkazilgan yana bir so'rovnomada [11], ruslarning musulmonlarga munosabati tekshiriladi. Unga ko'ra: "Juda ijobiy" 18% - 23%, "Ma'lum darajada ijobiy" 27% - 31%, "Na ijobiy, na salbiy" 31% - 32%, "Ma'lum darajada salbiy" 6% - 10%, "Juda salbiy" 2% - 4%, "Javob berish qiyin" 6% - 9% – degan javoblar olinadi. Bunday natijadan ko'rinib turibdiki, islomofobiya nafaqat Yevropa aholisida, balki ularning ta'sirida Sharq mamlakatlari ichidagi Rossiya hududida ham keng yoyilib borayotganligining guvohi bo'lamiz.

Butun dunyoda islomofobiyaning tarqalishi va u keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarni to'g'ri anglagan BMT 2022-yilning 15-mart kuni BMT Bosh Assambleyasi Islom hamkorlik tashkiloti nomidan Pokiston va Turkiya tomonidan kiritilgan konsensusga asoslanib 15-martni "Xalqaro islomofobiya qarshi kurash kuni" [12] deya e'lon qilingan rezolyutsiyani qabul qildi.

Bosh Assambleyadagi ovoz berish natijasida 115 kishi "ha", 0 "qarshi" va 44 ta "betaraf" bo'ldi.

Xususan, "44 ta betaraf davlatlar ichida Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Gretsiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Finlyandiya, Ukraina va Hindiston davlatlari ham mavjud edi" [13].

O'zbekiston esa, 115 ta davlat ichida rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlagan davlatlar qatorida bo'ldi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi nafaqat o'z xalqining tinchligi uchun, balki butundunyo mamlakatlari tinchligi uchun ham qayg'uradi. Shu bois, 2023-yil 19-sentyabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi" [14] – deb ta'kidlab o'tgani ham yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi.

Xulosa va takliflar. Umumiy qilib aytganda, bugun jahonda islomofobiyaning avj olishi G'arbnig Sharqqa qarshi ambitsiyalarini ko'rsatib qo'yimoqda. Agar bu jarayon davom etaversa, G'arb o'z halokatini o'zi yaratib qo'yishi mumkin. Chunki, islomofobiya sabab juda ko'p mamlakatlar o'rtasidagi hamkorliklarga putur yetishi hamda diniy va siyosiy tarqoqlik vujudga kelishi mumkin.

Shu bois, yuqorida keltirilgan salbiy holatlarning sabablarini o'rganish, ilmiy tahlil qilish va bartaraf etishda dinshunos, islomshunos, faylasuf, sotsiolog, siyosatshunos olimlar birgalikda tadqiqotlar olib borishi ijobiy samara beradi. Chunki, aynan tadqiqotlar ilmiy dalillarga tayanilgan holdagi yechimlarni berishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сидиров Д.В. (2014). Исламофобия современной России // Научно-аналитический журнал Обозреватель-Observer. (5(292)).
2. Etienne Dinet. "L'Orient vu de l'Occident" // Journal of the Royal African Society, vol. 21, no. 84 (July 1922).
3. Ислом. Энциклопедия: А-Х / Шайх Абдулазиз Мансур тахрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
4. "Исламофобия"дан кўзланган ғаразли мақсадлар. <https://zamaxshariy.uz/1450/> (Мурожаат санаси: 31.08.2023).
5. Осипов Е.А. Коммунитаризм. Радикализм. Исламофобия. Время действий для Э. Макрона. // Вестник гуманитарного образования, 2020, – № 3 (19). ISSN: 2411-2070.
6. Bernard Rougier. Les territoires conquis de l'islamisme. Paris, 2020.
7. Micheron H. Le jihadisme francais. Quartiers, Syrie, Prisons. – Paris: 2020.
8. Allen Ch. Islamophobia. Ashgate Publishing Group. 2010.
9. Рагозина С. Защищая "традиционный" ислам от "радикального": дискурс исламофобии в российских СМИ // Государство, религия, церковь в России и за рубежом. 2018. – № 2.
10. Аликсей Крымин, Георгий Энгельгардт. Исламофобия // Журнал "Отечественные записки". – №5, 2003. <https://magazines.gorky.media/oz/2003/5/islamofobiya.html> (Мурожаат санаси: 20.08.2023).
11. Россиядаги исламофобия. <https://www.islamonline.uz/site/item?id=9353> (Мурожаат санаси: 20.09.2023).
12. Генеральная Ассамблея ООН приняла проект резолюции о борьбе с исламофобией. <https://www.aa.com.tr/ru/политика/генеральная-ассамблея-оон-приняла-проект-резолюции-о-борьбе-с-исламофобией/3165708> (Мурожаат санаси: 16.03.2024).

13. Генеральная Ассамблея ООН приняла проект резолюции о борьбе с исламофобией. <https://www.aa.com.tr/ru/политика/генеральная-ассамблея-оон-приняла-проект-резолюции-о-борьбе-с-исламофобией/3165708> (Мурожаат санаси: 16.03.2024).

14. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи <https://president.uz/uz/lists/view/6677> (Мурожаат санаси: 20.09.2023).